



XALQARO NORDIK UNIVERSITETI

NORDIC INTERNATIONAL UNIVERSITY

2022-yil 8-sentabr

Biz haqimizda



UNIVERSITAS
NORDICA
INTERNATIONALIS

Universitet haqida

Xalqaro Nordik universiteti

Xalqaro Nordik universiteti (Nordic International University) Shimoliy Yevropa davlatlari, xususan Finlyandiya modeli asosida tashkil etilgan O'rta Osiyoda yagona bo'lgan xususiy universitetdir.

Universitet, haqli ravishda, fin va o'zbek hamkorligining ilk yirik natijasi, Finlandiya oliy ta'lim tizimining O'zbekistondagi yagona aksi, Toshkentdagi birinchi ta'lim klasteridir.

2022-yil 27-may

Kelishuv

O'zbekiston - Finlandiya tashqi ishlar vazirlarining siyosiy maslahat



Toshkent shahrida O'zbekiston-Finlyandiya tashqi ishlar vazirlarining siyosiy maslahatlar bo'yicha 10-yig'ilishida Shimoliy Yevropa mamlakatlarining ta'lim sohasidagi ilg'or yutuqlariga asoslangan ushbu zamonaviy xususiy oliy ta'lim tashkilotini tashkil etish bo'yicha kelishuvlarga erishildi



PQ-4884-son

“Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillash-tirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”

Finlandiya ta’lim tizimining o’ziga xos xususiyatlarini O’zbekistonda keng tadbir etish, ta’lim yo’nalishlari, o’quv reja va dasturlarini, ta’lim texnologiyalarini tubdan takomillashtirish bo’yicha aniq vazifalar belgilangan.



Hamkorlik aloqalari

YO'L XARITASI

Mazkur vazifalarning ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish Davlat inspeksiyasi, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan tashkil etilgan ishchi guruh Finlandiya Tashqi ishlar vazirligi va Finlandiya ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlikda yo'l xaritasini ishlab chiqdi.

Yo'l xaritada Finlandiyaning ta'lim sohasidagi ilg'or tajriba va yutuqlaridan O'zbekistonda olib borilayotgan keng ko'lamli ta'lim tizimidagi islohotlarda unumli foydalanish uchun zaruriy o'zaro hamkorlik dasturlari, loyiha va rejalari o'z o'rnini topdi.





O'zbekiston - Finlandiya

Zamonaviy ta'lim klasteri

Nordik mamlakatlarning ta'lim sohasidagi ilgor yutuqlariga asoslangan zamonaviy xususiy ta'lim klasterini tashkil etish maqsadga muvofiqligi belgilandi.

- Xalqaro Nordik universiteti
- Fin umumta'lim maktabi
- Nordik maktabgacha ta'lim tashkiloti
- Oliy ta'limdan keyingi malaka oshirish

Litsenziya

№ 034528

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish Davlat inspekiyasi

- 60110200 – Maktabgacha ta'lim
- 60410400 – Moliya va moliyaviy texnologiyalar
- 60110500 – Boshlang'ich ta'lim
- 60310100 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)
- 60111800 – Xorijiy til va adabiyoti (tillar bo'yicha)
- 60610500 – Kompyuter injiniringi (Kompyuter injiniringi, AT-servis, Axborot xavfsizligi, Multimedia texnologiyalari)
- TU BA (Hons) Xalqaro biznes
- BU BSc (Hons) sanoat menejmenti



ВАЗИРЛАР МАҲКАМАСИ ҲУЗУРИДАГИ ТАЪЛИМ СИФАТИНИ НАЗОРАТ ҚИЛИШ ДАВЛАТ ИНСПЕКЦИЯСИ

ЛИЦЕНЗИЯ

№ 034528

"XALQARO NORDIK UNIVERSITETI" MASULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Нодавлат таълим хизматларини кўрсатиш фаолияти учун лицензия

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
L-4409258

СТИР (СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)
309533058

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
08.08.2022дан

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Тошкент шаҳри, Олмазор тумани, Аллон МФЙ, Фаробий кучаси, 290-уй

МАНЗИЛ
Тошкент шаҳри, Чилонзор тумани, г. Ташкент, Чиланзарский район, кв. Е, Новза МСГ, 8/2- Дом, -

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси

ТАЪЛИМ ЙЎНАЛИШЛАРИ

Таълим йўналиши
60110200 - Мактабгача таълим
60410400 - Молия ва молиявий технологиялар
60110500 - Бoshланғич таълим
60310100 - Иқтисодиёт (тarmoқлар ва соҳалар буйича)
60111800 - Хорижий тил ва адабиёти (тип.пар буйича)
60610500 - Компьютер инжиниринги («Компьютер инжиниринги», «АТ-Сервис», «Ахборот хавфсизлиги», «Мультимедиа технологиялари»)
TU BA (Hons) Халқаро бизнес
BU BSc (Hons) sanoat menejmenti

08.08.2022
ТАҚДИМ ЭТИЛГАН САНА

Xalqaro Nordik universiteti

Toshkent shahrida Finlyandiyaning Kareliya amaliy fanlar universiteti, Helsingin Suomalainen Yhteiskoulu maktabi, "Nokia" transmilliy korporatsiyasi, Finnish Water Forum tashkiloti va ISKU kompaniyalarining bevosita qo'llab-quvvatlashlari negizida Finlyandiyaning ta'lim sohasidagi ilg'or yutuqlariga asoslangan holda tashkil etildi.



Universitet respublikada zamonaviy 8 ta ta'lim yo'nalishi bo'yicha kunduzgi va sirtqi shaklda yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, oliy ta'lim – ilm-fan – ishlab chiqarish bilan uzviy integratsiyasini jadallashtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

8-sentabr



Sherzod Asadov

**Prezident Administratsiyasi rahbarining
o‘rinbosari – O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti matbuot kotibi**



“

O‘zbekiston va Finlandiya ta‘lim tizimi hamkorligi asosida amalga oshirilgan ushbu ta‘lim klasteri Nordik mamlakatlari va mamlakatimiz uchun mamfaatli bo‘ldi. Zero, ta‘lim - jamiyat, davlat va inson resursi rivojlanishining asosi hisoblanadi.

Ushbu loyihaga o‘z hissasini qo‘shgan barcha tashkilotchi va ta‘lim klasteri asoschilarini muvaffaiqatli loyiha bilan tabriklayman.

”


Sherzod Asadov

Bu loyiha O'rta Osiyodagi birinchi yirik oliy ta'lim muassasi

Mamlakatimiz Prezidenti tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan ikki tomonlama manfaatli loyihalar Finlandiya tomonidan iliq kutib olinganidan mamnunmiz. Bu loyiha mamlakatlarimiz o'rtasidagi geografik joylashuvi uzoq bo'lsa-da, ta'lim sohasida qarashlarimiz mushtarak ekanligimizni ko'rsatuvchi yaqqol dalildir.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
MATBUOT XIZMATI





Ulug'bek Tashkenbayev

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish
Davlat inspeksiyasi rahbari



“

Mazkur xalqaro universitet faoliyatining yo'lga qo'yilishi mamlakatimiz Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi" PQ-4884 sonli qaroriga muvofiq Finladiya ta'lim tajribasini yurtimizda samarali tadbiriq etishga qaratilgan vazifalar ijrosining yorqin natijasi desak adashmaymiz.

”


Ulug'bek Tashkenbayev

Maqsadimiz bir – ta'lim e'tibor berish va uning sifatini oshirish



Finlandiya ta'lim sohasi va eng baxtli mamlakatlar ro'yhatida yuqori natijalarni qayd etgani shubhasiz, ta'lim sohasiga qaratilgan e'tibor samarasi ekanligini hammamiz yaxshi bilamiz. Qisqa vaqt ichida Finlandiya va O'zbekiston milliy ta'lim tizimini uyg'unlashtirishga erishdik.

Umid qilamizki ta'lim tizimidagi yuksak islohotlarni amalga oshirishda Xalqaro Nordik universiteti tayanch vazifasini bajaradi.



Maksimiliano Volpe

NOKIA korporatsiyasi mintaqaviy direktori

NOKIA

“

Biz bu yerga Universitet ochilishini nishonlashga yig'ildik, bundan oldin men Nokia kompaniyasi bunday juda muhim loyihaga jalb qilinganidan faxrlanaman. Inson kapitali bor joyda rivojlanish bo'ladi. Men ishonamanki, kelajakda bu loyiha natijasida yaxshi kadrlar yetishib chiqadi.

”



Maksimiliano Volpe

Inson kapitali rivojlanishda juda muhim, u biznes olamida katta o'zgarishga olib kiradi

Men Finlandiya elchisiga va uning hurmatli konsuliga tashakkur aytishni hohlerdim. Chunki uning tashabbusi bilan biz bu loyihaga qo'shildik. Men bu loyihaga boshida juda ishonchsizlik bilan qaragan edim. Men bu yerdagi barcha yig'ilganlarni, tashabbus ko'rsatganlarni va Nokia tomonidan kuchli qo'llab-quvvatlaganlarni ushbu loyihaning amalga oshgani bilan tabriklayman.

NOKIA





Petri Rayvo

Finlyandiyaning Kareliya amaliy fanlar universiteti Prezidenti



“

Men bugun bu yerda ajoyib universitet ochilishida ishtirok etayotganimdan xursandman. Biz bu yerda fin ta'lim tizimiga asoslangan Nordik amaliy universitetini ochmoqdamiz. Kareliya amaliy fanlar universiteti prezidenti sifatida Nordik xalqaro universiteti strategik hamkorimiz ekanligini ta'kidlayman,

”





Petri Rayvo

Hech narsa ta'limdan ko'ra qimmatroq qadrliroq bo'lmasligi kerak

Ta'lim rivojlanishi albatta qimmat turadi. Lekin, hech narsa ta'limdan ko'ra qimmatroq va qadrliroq bo'lmasligi kerak. Davlat va xalq o'z mamlakatining ta'limi rivojidan boshqa bunchalik ko'p qayg'urmaydi.

Ta'lim yoshlarga va turli yoshdagi insonlarga baxtli hayot uchun keng imkoniyat yaratadi. Ta'lim jamiyatni yaratadi va u jamiyatning gullab yashnashi uchun asos yaratadi. Shuning uchun ta'lim uchun to'lov qilish kerak va zarur. Shunda pul to'g'ri yo'naltirilgan bo'ladi.





Ilkka Raysenyan

Finlyandiyaning O'zbekistondagi
favqulotda va muxtor elchisi



“

Men bugun bu yerga Xalqaro Nordik universitetining tantanali ochilishini shaxsan nishonlashga keldim. Bu oliy ta'lim uchun yangi innovatsion platforma hisoblanadi. Bu loyiha ikki mamlakat yani O'zbekiston va Finlandiya o'rtasidagi hamkorliklar doirasida ko'rishni intiqlik bilan kutgan ishlarimizdan edi. Ta'lim bu kelajakdagi muvaffaqiyatlar kalitidir, va o'ylaymizki ushbu yangi universitet o'zbek yoshlari uchun akademik faoliyatlarida, kompaniyalarda tadbirkorlik sohasida va o'z hayotlarida yuqori darajada homkorlikning yangi yo'nalishlariga yo'l topishlari uchun yaxshi imkoniyatdir.

”



Ilkka Raysenyan

Universitet nafaqat shu mamlakat, balki O'rta Osiyo, Yevropa hamda Finlandiyaga ham foydalidir

Bu yangi platforma orqali yuqori malakali o'qituvchilar va innovatsion o'qitish usullarida amalga oshiriladi. Biz barcha yaxshiliklarni va muvaffaqiyatlarni tilaymiz. Buning ortida ta'limga oid bir qator umidlarimiz bor. Inson kapitali kerak ko'plab kompaniyalar ham buni qo'llab-quvvatlaydi va bu nafaqat shu mamlakatga balki O'rta Osiyoga, Yevropaga hamda Finlandiyaga ham foydalidir. Bu faoliyatda universitetga muvaffaqiyatlar tilab qolaman.



RAMZIY OCHILISH MAROSIMI



Chapdan o'ngga: Sherzod Asadov, Ulug'bek Tashkenbayev, Petri Rayvo, Ilkka Raysenyan



Eliza Tarvaynen
ISKU vitse-prezidenti

ISKU

“

Biz interyer dizayn sohasida faoliyat yuritayotgan 90 yoshga to'lgan oilaviy biznesga qurilgan kompaniyamiz, asosan ta'lim sohasi muhiti dizayni bilan ishlaymiz. Biz bu Xalqaro Nordik universiteti va fin kompaniyalari bilan hamkorlik qilayotganimizdan faxrlanamiz.

”

Eliza Tarvaynen

Bunday o'zaro hamkorliklar butun xalq muvaffaqiyatlari va rivojlanish kalitidir

Zamonaviy ekologik tizim san'atini yaratishda o'qitish, o'quv dasturlari, talabalar bilan birga ta'lim muhiti ham muhim o'rin egallaydi, aynan ta'lim muhiti butun jamiyat uchun jahon darajasidagi ta'lim imkoniyatlarini shakllantiradi. Jamiyatning manfaatdor tomonlari o'rtasidagi bunday hamkorliklar – nafaqat shaxsiy balki butun xalq muvaffaqiyatlari va rivojlanishi kalitidir.





Natalya Salonen

ISKU direktori MDH mamlakatlari bo'yicha

Doimiy o'zgaruvchan ta'lim va malaka ehtiyojlari talablarni qondirish uchun turli xil, moslashuvchan va tezkor echimlarni talab qiladi. Oliy ta'lim muassasalarida oliy o'quv yurtlarigacha har kim o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

ISKU





Samu Seitsalo

**Finlandiya Milliy ta'lim
agentligi direktori**



“

Fin ta'lim tizimi - bu yuqori malakali o'qituvchilar degani. Fin ta'lim tizimining muvaffaqiyati ham o'qituvchilarga asoslangan. O'zbekistonda o'qituvchilar ko'p. Men ishonamanki o'qituvchilar ish faoliyatlarini boshlashdan avval va faoliyatlari davomida o'qituv malakalarini oshirish imkoniga ega bo'ladilar, va bu O'zbekistonda o'qituvchilar darajasini oshirish imkonini beradi.

”






Samu Seitsalo

Bu universitetning O'zbekistondagi boshqa universitetlardan farqi nimada?

Bu yerda biz Amaliy fanlarni tadbiq qilamiz. Ya'ni akademik fanlar va ishlab chiqarish o'rtasida bog'liqlik bo'ladi. Agar bu ish to'g'ri yo'lga qo'yilsa kelajakda katta natijalar beradi. Talabalarda Finlandiyada ham daraja olish imkoniga ega bo'ladilar. Albatta, ta'limning qaysidir qismini Finlandiyada olib borilsa kattaroq natija beradi.



FINNISH NATIONAL
AGENCY FOR EDUCATION





Petri Lounaskorpi

**DiDacTec kompaniyasi
asoschisi**

DiDacTEC
Didactical Training and
Educational Consulting

“

Men bugun bu yerga Xalqaro Nordik universitetining tantanali ochilishini shaxsan nishonlashga keldim. Bu oliy ta'lim uchun yangi innovatsion platforma hisoblanadi. Bu loyiha ikki mamlakat yani O'zbekiston va Finlandiya o'rtasidagi hamkorliklar doirasida ko'rishni intiqlik bilan kutgan ishlarimizdan edi. Ta'lim bu kelajakdagi muvaffaqiyatlar kalitidir, va o'ylaymizki ushbu yangi universitet o'zbek yoshlari uchun akademik faoliyatlarida, kompaniyalarda tadbirkorlik sohasida va o'z hayotlarida yuqori darajada homkorlikning yangi yo'nalishlariga yo'l topishlari uchun yaxshi imkoniyatdir.

DiDacTEC
Didactical Training and
Educational Consulting

”

Seminar trening

Eliza Tarvaynen

ISKU kompaniyasi
vitse-prezidenti



Natalya Salonen

ISKU MDH mamlakatlari
bo'yicha direktori



Finlandiya ta'lim tizimining fenomeni: o'quv muhitini tashkil qilishda Finlandiya yondashuvini amaliy qo'llash, o'quv muhitining o'quv natijalariga va talabalar motivatsiyasiga ta'siri.

Xalqaro Nordik universiteti

rasmiy ochilish marosimi

- 100043, Toshkent shahri, Chilonzor, Bunyodkor ko'chasi 8/2
- info@nordicuniversity.org
- www.nordicuniversity.org
- +998 955052200
- +998 955053300
- +998 955054400

